



UDK: 37.013.2:005.8:378

Shahnoza Z. QURBONNAZAROVA,

Tayanch doktorant, Buxoro davlat texnika universiteti, Buxoro, O‘zbekiston

E-mail: shahnoza86@gmail.com, ORCID: 0000-0001-7116-9215

BDTU professori U.O‘rinov taqrizi asosida

CONTENT OF FORMING THE PROFESSIONAL IMAGE OF FUTURE ENGINEERS

Annotation

This article examines the content of forming the professional image of future engineers from a scientific and pedagogical perspective. It reveals the essence of professional image, its structural components, and the content-related aspects of its formation process. Additionally, the importance of educational content, integrative approaches, and innovative pedagogical technologies that contribute to the development of professional image in engineering education is highlighted. The study pays special attention to the harmonious development of students' personal qualities, communicative culture, and professional competencies.

Keywords: professional image, engineering education, professional competence, educational content, communicative culture, personal qualities, innovative technologies, integrative approach.

СОДЕРЖАНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ИМИДЖА БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ

Аннотация

В данной статье содержание формирования профессионального имиджа будущих инженеров рассматривается с научно-педагогической точки зрения. Раскрываются сущность профессионального имиджа, его структурные компоненты, а также содержательные аспекты процесса его формирования. Кроме того, освещается значение содержания образования, интегративных подходов и инновационных педагогических технологий, способствующих развитию профессионального имиджа в системе инженерного образования. В исследовании особое внимание уделяется вопросам гармоничного развития личностных качеств студентов, их коммуникативной культуры и профессиональных компетенций.

Ключевые слова: профессиональный имидж, инженерное образование, профессиональная компетенция, содержание образования, коммуникативная культура, личностные качества, инновационные технологии, интегративный подход.

BO‘LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY IMIDJINI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak muhandislarning kasbiy imidjini shakllantirish mazmuni ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Unda kasbiy imidjning mohiyati, uning tarkibiy komponentlari hamda ularni shakllantirish jarayonining mazmuniy jihatlari yoritiladi. Shuningdek, muhandislik ta‘limi jarayonida kasbiy imidjini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ta‘lim mazmuni, integrativ yondashuvlar va innovatsion pedagogik texnologiyalarning ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqotda talabalar shaxsiy fazilatlarini, kommunikativ madaniyati va kasbiy kompetensiyalarini uyg‘un rivojlantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy imidj, muhandislik ta‘limi, kasbiy kompetensiya, ta‘lim mazmuni, kommunikativ madaniyat, shaxsiy fazilatlar, innovatsion texnologiyalar, integrativ yondashuv.

Kirish. Zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida texnika oliy ta‘lim muassasalari oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – bo‘lajak muhandislarni nafaqat yuqori darajadagi kasbiy bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassis sifatida, balki raqobatbardosh kasbiy imidjga ega shaxs sifatida tayyorlashdan iboratdir. Bo‘lajak muhandislarning kasbiy imidjini shakllantirish bugungi kunda ta‘lim siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Prezident tomonidan qabul qilingan qator qaror va farmonlarda yosh mutaxassislarning zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashi bilan bir qatorda, ularning kasbiy madaniyati va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilgan. Xususan, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi hamda oliy ta‘lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan hujjatlar muhandislarning innovatsion fikrlashi, ijodkorligi va mas‘uliyatini oshirishni nazarda tutadi. Ushbu hujjatlar asosida ta‘lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalar joriy etilmoqda, amaliyot bilan integratsiya kuchaytirilmoqda. Natijada, bo‘lajak muhandislar nafaqat texnik bilimlarga ega, balki ijtimoiy faol, tashabbuskor va raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllanmoqda.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda mehnat bozori faqat bilimli mutaxassisni emas, balki o‘zini professional tarzda namoyon qila oladigan, kommunikativ, mas‘uliyatli, innovatsion fikrlovchi hamda ijtimoiy jihatdan faol shaxsni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bo‘lajak muhandislarning kasbiy imidjini shakllantirish muammosi zamonaviy pedagogikaning dolzarb ilmiy-amaliy yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Kasbiy imidj tushunchasi an‘anaviy ravishda mutaxassisning tashqi qiyofasi yoki obro‘si bilan bog‘lab talqin etilgan bo‘lsa-da, bugungi kunda u ancha kengroq mazmun kasb etib, shaxsning kasbiy kompetensiyalari, axloqiy-etik qadriyatlarini, kommunikativ madaniyati, xulq-atvori va kasbiy faoliyatga bo‘lgan munosabatining yaxlit tizimi sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, muhandislik faoliyatining murakkabligi, ko‘p bosqichlilik va jamoaviy xarakteri kasbiy imidjning har tomonlama rivojlangan bo‘lishini taqozo etadi. Bu esa, o‘z navbatida, ta‘lim jarayonida kasbiy imidjini shakllantirishning mazmuniy asoslarini ilmiy jihatdan aniqlash va takomillashtirishni talab etadi.

Bo‘lajak muhandislarning kasbiy imidjini shakllantirish mazmuni ta‘lim jarayonining barcha tarkibiy

qismlari - maqsad, vazifa, mazmun, metod, shakl va vositalar bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Mazkur jarayonda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy faoliyat, real ishlab chiqarish vaziyatlari, muammoli topshiriqlar va loyihaviy faoliyat muhim o'rin egallaydi. Chunki aynan shu omillar orqali talabalar o'z kasbiy imkoniyatlarini anglaydi, o'zini kasbiy muhitda sinab ko'radi va shaxsiy kasbiy imidjini shakllantiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, bo'lajak muhandislarning kasbiy imidjini shakllantirish mazmunini ilmiy asosda ishlab chiqish va uni ta'lim jarayoniga samarali joriy etish orqali zamonaviy talablarga javob beruvchi, yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash imkoniyatini yaratiladi. Mazkur yo'nalishda olib boriladigan ilmiy izlanishlar esa pedagogika fanining rivojiga hamda texnik ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bo'lajak muhandislarning kasbiy imidjini shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogika, psixologiya hamda muhandislik ta'limi nazariyasida dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur muammo bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, kasbiy imidj faqat tashqi ko'rinish yoki ijtimoiy obro' bilan cheklanmay, balki shaxsning kasbiy kompetensiyasi, axloqiy qadriyatlarini, kommunikativ madaniyati va o'zini namoyon qilish strategiyalarini ham o'z ichiga oladi.

Adabiyotlarda "kasbiy imidj" tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Psixolog olimlar imidjni shaxsning ijtimoiy rolini bajarish jarayonida shakllanadigan o'zini taqdim etish modeli sifatida izohlaydilar. Pedagogik nuqtai nazardan esa kasbiy imidj mutaxassisning kompetentlik darajasi va uning jamiyatdagi kasbiy nufuzini ifodalovchi integrativ sifat sifatida qaraladi [1].

Muhandislik ta'limi kontekstida kasbiy imidjga oid tadqiqotlarda muhandisning texnik bilimlari bilan bir qatorda uning kommunikativ, boshqaruv va innovatsion faoliyatga tayyorligi ham muhim omil sifatida ko'rsatiladi.

Ko'plab tadqiqotchilar kasbiy imidj shakllanishini ta'lim jarayoni bilan bevosita bog'laydilar. Jumladan, A.Markova va E.Zeer ishlarida kasbiy rivojlanish bosqichlari orqali imidjning shakllanish mexanizmi yoritilgan. Ularning fikricha, talaba avval kasbga moslashadi, so'ngra kasbiy identifikatsiya jarayonidan o'tadi va nihoyat barqaror kasbiy imidjni shakllantiradi [2].

O'zbekistonlik pedagog olimlar kasbiy imidjni shakllantirishda ta'lim muassasalarining tarbiyaviy muhiti, amaliy mashg'ulotlar va ishlab chiqarish bilan integratsiya muhim rol o'ynashini ta'kidlaydilar. Ularning ishlari muhandislik ta'limida kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirish zarurligini asoslaydi [3].

Zamonaviy adabiyotlarda muhandis faqat texnik mutaxassis emas, balki ijtimoiy tizimda faol ishtirok etuvchi shaxs sifatida ham talqin qilinadi. Shu bois kasbiy imidjni shakllantirishda kommunikativ kompetensiya muhim o'rin tutadi.

G'arb olimlari muhandislik faoliyatida jamoada ishlash, loyiha boshqaruvi va innovatsion fikrlash muhimligini qayd etadilar. Bu esa muhandisning ijtimoiy imidjini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi [4].

So'nggi yillarda ta'limda kompetensiyaviy yondashuv keng qo'llanilmoqda. Bu yondashuvga ko'ra, kasbiy imidj quyidagi komponentlar asosida shakllanadi:

- kasbiy bilimlar va texnik kompetensiya;
- kommunikativ va ijtimoiy kompetensiya;
- axloqiy va madaniy kompetensiya;
- o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi.

Zamonaviy adabiyotlarda raqamli texnologiyalar kasbiy imidjni shakllantirishning yangi omili sifatida

qaralmoqda. Virtual ta'lim muhitlari, onlayn platformalar va simulyatsion tizimlar talabalarda real kasbiy vaziyatlarga yaqin tajriba hosil qiladi [5].

Tadqiqotchilar raqamli avlod talabalari uchun "digital identity" va "professional online presence" tushunchalarining muhimligini ta'kidlaydilar. Bu esa muhandisning nafaqat real hayotdagi, balki virtual muhitdagi imidjini ham shakllantirish zarurligini ko'rsatadi [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Bo'lajak muhandislarning kasbiy imidjini shakllantirish mazmunini o'rganishda tadqiqot metodologiyasi kompleks yondashuvga asoslanadi. Mazkur yondashuv shaxsni kasbiy faoliyat subyekti sifatida yaxlit tizimda tahlil qilish, uning ijtimoiy, psixologik va pedagogik rivojlanish jarayonlarini o'zaro bog'liq holda o'rganishni nazarda tutadi. Shu bois tadqiqotda nazariy va amaliy tahlil uyg'unligi asosiy metodologik tamoyil sifatida belgilangan bo'lib, u kasbiy imidjning shakllanish mexanizmlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Metodologik asos sifatida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv muhim o'rin egallaydi. Bu yondashuvga ko'ra, talaba shunchaki bilim oluvchi emas, balki o'z kasbiy qiyofasini ongli ravishda shakllantiruvchi faol subyekt sifatida qaraladi. Muhandislik ta'limi jarayonida uning individual xususiyatlari, qiziqishlari, kasbiy motivatsiyasi va ijtimoiy tajribasi imidj shakllanishining asosiy omillari sifatida e'tiborga olinadi. Shu nuqtai nazardan, kasbiy imidj dinamik jarayon bo'lib, u ta'lim, amaliyot va ijtimoiy muhitning o'zaro ta'siri natijasida rivojlanadi [7].

Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuv ham muhim metodologik asos sifatida qo'llaniladi. Bu yondashuv bo'lajak muhandisning faqat nazariy bilimlarga ega bo'lishi emas, balki ularni amaliy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini ham shakllantirishga qaratilgan. Kasbiy imidj ana shu kompetensiyalar tizimining integratsiyasi natijasi sifatida talqin qilinadi. Ya'ni, muhandisning jamiyatdagi nufuzi va kasbiy qiyofasi uning bilim, ko'nikma, malaka hamda shaxsiy sifatlarining uyg'unligi orqali namoyon bo'ladi.

Fenomenologik yondashuv esa kasbiy imidjning subyektiv jihatlarini ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv orqali talabaning o'z kasbiy rolini qanday idrok etishi, o'zini muhandis sifatida qanday tasavvur qilishi va kelajakdagi kasbiy faoliyatga munosabati o'rganiladi. Natijada imidj nafaqat tashqi baholash, balki ichki o'zini anglash jarayoni sifatida ham tahlil qilinadi [8].

Tadqiqot metodologiyasida ijtimoiy-konstruktivistik qarashlar ham o'z ifodasini topadi. Unga ko'ra, kasbiy imidj ijtimoiy muhitda shakllanadigan, doimiy ravishda o'zgarib boradigan konstruksiya sifatida qaraladi.

Umuman olganda, tadqiqot metodologiyasi bo'lajak muhandislarning kasbiy imidjini shakllantirish jarayonini ko'p qirrali, dinamik va tizimli hodisa sifatida tahlil qilishga imkon beradi. Ushbu metodologik yondashuvlar asosida kasbiy imidjni rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlarini aniqlash, shuningdek, muhandislik ta'limi sifatini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy xulosalar ishlab chiqiladi.

Tahlil va natijalar. Bo'lajak muhandislarning kasbiy imidjini shakllantirish jarayoni bo'yicha olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ushbu hodisa murakkab va ko'p qatlamli tuzilishga ega bo'lib, u ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida izchil ravishda rivojlanib boradi. Kasbiy imidj faqat nazariy bilimlar yig'indisi emas, balki shaxsning kasbiy faoliyatga bo'lgan munosabati, uning ijtimoiy pozitsiyasi hamda professional muhitda o'zini tutish madaniyati bilan chambarchas bog'liqdir. Shu jihatdan, muhandislik ta'limi jarayoni nafaqat bilim berishga, balki bo'lajak mutaxassisning

yaqin kasbiy qiyofasini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, kasbiy imidjning shakllanishida ta'lim mazmunining yangiligi va amaliy yo'naltirilganligi muhim rol o'ynaydi. An'anaviy yondashuvlarda asosiy e'tibor nazariy bilimlarni o'zlashtirishga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy yondashuvlarda talabning real ishlab chiqarish sharoitlariga moslashuvi, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa kasbiy imidjning faqat akademik ko'rsatkichlar bilan emas, balki amaliy kompetensiyalar bilan ham belgilanishini ko'rsatadi.

O'rganishlar natijasida kasbiy imidjning shakllanishida shaxsiy motivatsiya va ichki ehtiyojlar ham hal qiluvchi omil ekanligi ma'lum bo'ldi. Talabning kasbga bo'lgan qiziqishi, o'zini kelajakda ushbu sohada tasavvur qilishi va kasbiy rivojlanishga intilishi uning imidjini shakllantirish jarayonini tezlashtiradi. Aksincha, motivatsiyaning pastligi kasbiy identifikatsiya jarayonini sekinlashtiradi va imidjning barqaror shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Natijalar tahlili shuni ham ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar va innovatsion ta'lim vositalaridan foydalanish kasbiy imidjni shakllantirish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Virtual laboratoriyalar, simulyatsion dasturlar va onlayn platformalar talabalarga real kasbiy vaziyatlarga yaqin sharoitda ishlash imkonini yaratadi. Bu esa ularning o'zini muhandis sifatida idrok etishini kuchaytiradi va kasbiy ishonchini oshiradi.

Bundan tashqari, tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'quv muhitining psixologik iqlimi ham kasbiy imidj shakllanishida muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi ijobiy hamkorlik, qo'llab-quvvatlovchi muhit va ochiq muloqot talabalarda o'ziga ishonchini shakllantiradi hamda kasbiy o'sishga bo'lgan intilishni kuchaytiradi. Bunday muhitda talaba o'zini kelajakdagi muhandis sifatida erkin tasavvur qila oladi va kasbiy rolini ongli ravishda qabul qiladi.

Umuman olganda, olingan natijalar kasbiy imidjning shakllanishi ko'p omilli va dinamik jarayon ekanligini tasdiqlaydi. Bu jarayonda ta'lim mazmuni, pedagogik yondashuvlar, kommunikativ muhit, shaxsiy motivatsiya hamda zamonaviy texnologiyalar o'zaro uyg'unlikda faoliyat yuritadi. Shu asosda aytish mumkinki, bo'lajak muhandislarning kasbiy imidjini shakllantirish samaradorligini oshirish uchun ta'lim jarayonini kompleks yondashuv asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Bo'lajak muhandislarning kasbiy imidjini shakllantirishga oid olib borilgan nazariy tahlillar va

amaliy kuzatishlar natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, kasbiy imidj murakkab ijtimoiy-pedagogik hodisa bo'lib, u ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlari bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Ushbu jarayon faqat bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish bilan cheklanmay, balki shaxsning kasbiy qadriyatlarini, ijtimoiy mas'uliyatini, kommunikativ madaniyatini hamda o'z kasbiga bo'lgan ongli munosabati orqali namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, kasbiy imidj bo'lajak muhandisning professional tayyorgarlik darajasini ifodalovchi integral ko'rsatkich sifatida qaraladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kasbiy imidj shakllanishi bosqichma-bosqich amalga oshadigan dinamik jarayon bo'lib, u talabning ta'lim muhitiga moslashuvi, kasbiy identifikatsiya jarayonini hamda mustaqil professional pozitsiyani egallashi bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu jarayonda ta'lim mazmunining zamonaviyligi, amaliyotga yo'naltirilganligi va innovatsion yondashuvlarga asoslanganligi muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan ta'lim shakllari talabalarda real kasbiy faoliyatga yaqin tajriba shakllantirib, ularning kasbiy ishonchini oshiradi.

Olingan natijalar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, kasbiy imidjni shakllantirish jarayonida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari talabalarga virtual kasbiy muhitda ishlash, murakkab muhandislik masalalarini modellashtirish hamda mustaqil qaror qabul qilish imkonini yaratadi. Bu esa ularning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bilan birga, o'zini zamonaviy muhandis sifatida tasavvur qilishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatadiki, bo'lajak muhandislarning kasbiy imidjini shakllantirishda motivatsion omil hal qiluvchi ahamiyatga ega. Talabning kasbga bo'lgan ichki qiziqishi, o'zini o'zi rivojlantirishga intilishi va kelajakdagi professional maqsadlari uning kasbiy imidjini mustahkamlovchi asosiy omillardan biridir. Shu sababli, ta'lim jarayonida talabalarning motivatsiyasini oshirishga qaratilgan pedagogik strategiyalarni keng joriy etish zarur.

Umuman olganda, kasbiy imidjni shakllantirish jarayoni tizimli, kompleks va uzluksiz yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda ta'lim mazmuni, pedagogik texnologiyalar, amaliy faoliyat, raqamli vositalar hamda shaxsiy motivatsiya o'zaro uyg'unlikda bo'lishi lozim. Shu asosda, muhandislik ta'limida kasbiy imidjni shakllantirishni takomillashtirish orqali raqobatbardosh, innovatsion fikrlovchi va yuqori kasbiy madaniyatga ega mutaxassislarni tayyorlash imkoniyati kengayadi.

ADABIYOTLAR

1. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. P.f.d. diss. – T., 2007. 305-b.
2. Hamidov J.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasi: Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2017 y.
3. Himmataliyev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi (texnika oliy ta'lim muassasalarining "kasb ta'limi" yo'nalishlari misolida). Diss...ped.fan.dok.-Toshkent.-2018.-230 b
4. Muslimov N.A. Pedagogik faoliyatga tizimli yondashuv muammolari // Kasb-hunar ta'limi, 2004. - № 3. – B.24.
5. To'xtayeva Z.Sh. Kasb - hunar ta'limida fanlararo uzviylikni ta'minlash metodikasi // Diss. – Toshkent, 2012. – 137 b.
6. Qo'ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: ped. fan. dok. (DSc) diss. avtoref. – T.: 2019. – 70 b.
7. Ходжабоев А.Р. Научно-педагогические основы учебнометодического комплекса подготовки учителя труда. Автореф. дисс. пед. наук. - Т.: 1992. - 42 с.
8. O'rinov U.A. Oliy ta'lim bitiruvchilarini tayyorlashga oid ilmiy – uslubiy ishlar va tadqiqotlar tahlili // Mug'allim hem uzluksiz bilimlendiri. 2020. №1 82-87 b.